



**Inson huquqlarini himoya qilishda milliy institutlarning roli:
inson huquqlari bo'yicha vakil - Ombudsman misolida**

Mansurova Nilufar Muxsinjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola inson huquqlarini himoya qilishda milliy institutlarning roli, xususan Ombudsman institutining o'рни va ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda Ombudsman institutining tarixiy rivojlanishi, huquqiy asoslari, asosiy funksiyalari va vakolatlari batafsil o'rganilgan. Maqolada O'zbekistonda Ombudsman institutining joriy etilishi va rivojlanish bosqichlari, uning ishlash mexanizmi hamda zamonaviy chaqiriqlar va istiqbollar yoritilgan. Tadqiqot natijalarida Ombudsman instituti fuqarolar va davlat o'rtasida ko'priq vazifasini bajarishi, inson huquqlari buzilishlarini bartaraf etishda samarali vosita bo'lishi ta'kidlangan. Maqolada shuningdek, raqamli texnologiyalar rivojlanishi va pandemiya kabi yangi chaqiriqlar sharoitida Ombudsman institutining moslashishi zarurligi ko'rsatilgan.

Аннотация: Данная статья анализирует роль национальных институтов в защите прав человека, в частности место и значение института Омбудсмана. В исследовании подробно изучены историческое развитие института Омбудсмана, его правовые основы, основные функции и полномочия. В статье освещены внедрение и этапы развития института Омбудсмана в Узбекистане, его механизм работы, а также современные вызовы и перспективы. В результатах исследования подчеркивается, что институт Омбудсмана выполняет функцию моста между гражданами и государством, является эффективным инструментом для устранения нарушений прав человека. В



стате также показана необходимость адаптации института Омбудсмана к новым вызовам в условиях развития цифровых технологий и пандемии.

Abstract: This article analyzes the role of national institutions in protecting human rights, particularly the place and significance of the Ombudsman institution. The research thoroughly examines the historical development of the Ombudsman institution, its legal foundations, main functions and powers. The article covers the implementation and development stages of the Ombudsman institution in Uzbekistan, its working mechanism, as well as contemporary challenges and prospects. The research results emphasize that the Ombudsman institution serves as a bridge between citizens and the state, acting as an effective tool for eliminating human rights violations. The article also demonstrates the necessity for the Ombudsman institution to adapt to new challenges in the context of digital technology development and pandemic conditions.

Zamonaviy demokratik jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarining himoyasi davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Huquqiy davlat qurishda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun turli xil institutlar faoliyat ko'rsatadi. Shu institutlar orasida ombudsman (Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis Vakilining) instituti alohida o'rin tutadi.

Ombudsman instituti – bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini nazorat qilish maqsadida tuzilgan mustaqil institutdir. Ushbu institutning asosiy vazifasi inson huquqlarining buzilishini oldini olish va ularni tiklashdan iboratdir.

Ombudsman institutining tarixiy rivojlanishi



Dunyoda 1-marta Ombudsman lavozimi 1709-yil Shvetsiya qirolligi huzurida joriy qilingan. Hozirgi vaqtda u jahonning 110 dan ortiq mamlakatida mavjud. Ombudsman institutini tashkil etilishiga qarab 2 turga bo'lish mumkin: parlament tomonidan tayinlanadigan (saylanadigan) klassik tipdagi ombudsman va ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadigan ombudsman. Klassik tipdagi ombudsman har qanday tashkilot, korxona, muassasa va mansabdor shaxslarning faoliyatini tekshirish huquqiga ega. Klassik Ombudsman Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Portugaliya, Ispaniya va ko'pgina mamlakatlar ombudsmanlari kiradi.

Xalqaro Advokatlar Assotsiatsiyasi 1974-yilda ombudsmanini quyidagicha ta'riflagan: "Konstitutsiya yoki qonun chiqaruvchi organ tomonidan tashkil etilgan, mustaqil yuqori darajadagi davlat amaldori tomonidan boshqariladigan idora bo'lib, u qonun chiqaruvchi organga javobgar, davlat idoralari, amaldorlari va xodimlariga qarshi shikoyatlarni qabul qiladi yoki o'z tashabbusi bilan harakat qiladi, tergov o'tkazish, tuzatish choralarini tavsiya qilish va hisobotlar chiqarish vakolatiga ega."¹

MDH davlatlari ichida ilk bora O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis Vakili instituti 1995-yil 23-fevral kuni O'zbekistonda Ombudsman instituti joriy etildi. Bu O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 24-aprelda bo'lib o'tgan sakkizinchi sessiyasiida "Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Shu kunga qadar ushbu hujjat Ombudsman vazifalari va vakolatlarini kengaytirish zaruriyati nuqtayi nazaridan takomillashtirilib borilmoqda. Xususan, 2024-yil 15-noyabr kuni avvalgi qonun bekor qilinib, yangi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari

¹ Gottehrer M. Fundamental Elements of An Effective Ombudsman Institution.

https://www.theioi.org/downloads/934ch/Stockholm%20Conference_15.%20Plenary%20Session%20II_Dear%20Gottehrer.pdf



bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida² qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning asosiy nuqtalaridan biri – bu ombudsmanga bir qancha vakolatlar qatorida qonunchilik tashabbusining berilgani bo'ldi.

Ombudsman institutining huquqiy asoslari

Ombudsman institutining faoliyati bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Jumladan, BMTning Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Yevropa Kengashining Inson huquqlari va asosiy erkinligi to'g'risidagi konvensiyasi kabi hujjatlar ombudsman institutining huquqiy asosini tashkil etadi.

Ombudsman institutining asosiy funksiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Himoya funksiyasi - fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilgan hollarda ularni tiklash va himoya qilish. Bu funksiya ombudsmanning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Ombudsman fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, ularning huquqlari buzilishini tekshiradi va tegishli choralar ko'rishni talab etadi.

Profilaktika funksiyasi - inson huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida davlat organlari faoliyatini tahlil qilish va tavsiyalar berish. Ombudsman muntazam ravishda inson huquqlari sohasidagi vaziyatni tahlil qilib, buzilishlar sabablarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish choralarini taklif etadi.

Ma'lumot berish funksiyasi - inson huquqlari haqida axolini xabardor etish va huquqiy madaniyatni oshirish. Ombudsman tashkiloti turli targ'ibot choralari orqali fuqarolarning huquqiy ongini oshirish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Monitoring funksiyasi - inson huquqlari sohasidagi vaziyatni doimiy kuzatib borish va baholash. Bu funksiya ombudsmanga mamlakatdagi inson huquqlari holati haqida obyektiv ma'lumot olish va tegishli tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

Ombudsman instituti quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib boradi:

² Batafsil qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.11.2024-y., 03/24/1002/0936-son



Murojaatlarni ko‘rib chiqish - fuqarolarning yozma va og‘zaki murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish ombudsmanning kundalik faoliyati asosini tashkil etadi. Har bir murojaat yetarli darajada o‘rganiladi va tegishli choralar ko‘riladi.

Tekshiruvlar o‘tkazish - ombudsman inson huquqlari buzilishi haqidagi axborotlarni tekshirish uchun maxsus tekshiruvlar o‘tkazish vakolatiga ega. Bu tekshiruvlar davlat organlari, muassasalar va tashkilotlarda amalga oshirilishi mumkin.

Hamkorlik qilish - ombudsman davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik inson huquqlarini himoya qilishda samarali natijalarga erishish uchun zarurdir.

Marten Oostingning ta’kidlashicha Ombudsman institutining asosiy xususiyatlari - Mustaqillik, inson huquqlarini himoya qilish, korruptsiyaga qarshi kurashishda namoyon bo‘ladi³.

Ombudsman institutining afzalliklari

Ombudsman institutining boshqa huquqiy himoya institutlari oldidagi asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Qulaylik - fuqarolar uchun ombudsmanga murojaat qilish bepul va sodda tartibda amalga oshiriladi. Bu ombudsman xizmatlarini keng fuqaro qatlamlari uchun qulay qiladi.

Mustaqillik - ombudsman o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lib, hech qanday davlat organiga bo‘ysunmaydi. Bu uning xolisona va beg‘araz faoliyat olib borishiga imkon beradi.

Ixtisoslashuv - ombudsman va uning apparati inson huquqlari sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lib, bu sohadagi muammolarni chuqur tushunadi.

Profilaktika - ombudsman faqat alohida holatlarni hal etish bilan cheklanmay, balki tizimli muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun tavsiyalar beradi.

O‘zbekistonda ombudsman institutining rivojlanishi

³ Oosting M. The concept and role of the ombudsman throughout the world. Speech at the Regional Ombudsman Conference, "The Ombudsman in Africa in the New Millennium", Kampala, Uganda, August 24, 1998



O'zbekistonda ombudsman institutining rivojlanishi bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki bosqichda (1995-2005-yillar) institut asoslari qo'yildi va uning huquqiy bazasi shakllantirildi. Ikkinchi bosqichda (2005-2015-yillar) institut faoliyatining kengayishi va takomillashtirilishi amalga oshirildi. Uchinchi bosqichda (2015-yildan hozirgacha) institut faoliyatining yanada samarali tashkil etilishi va xalqaro standartlarga moslashtirilishi yo'lida ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ombudsman instituti quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib boradi:

- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish
- Bolalar huquqlarini himoya qilish
- Gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish
- Invalidlar huquqlarini himoya qilish
- Huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha faoliyat

Zamonaviy chaqiriqlar va istiqbollar

Hozirgi kunda ombudsman instituti bir qator yangi chaqiriqlar bilan duch kelmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, pandemiya va boshqa omillar inson huquqlari sohasida yangi masalalar tug'dirmoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida kiber-huquqlar, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, onlayn-huquqlar kabi yangi sohalar paydo bo'ldi. Ombudsman instituti bu yangi sohalarda ham faoliyat ko'rsatishi lozim.

Pandemiya davrida cheklovlar kiritilganda inson huquqlari va jamoat salomatligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasi aktuallashti. Ombudsman instituti bu borada ham muhim rol o'ynadi.

Xulosa. Ombudsman instituti inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu institut fuqarolar va davlat o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi, inson huquqlari buzilishlarini bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi.



Zamonaviy sharoitda ombudsman instituti doimiy rivojlanib borishini talab etadi. Yangi texnologiyalarning kirib kelishi, globallashtirish jarayonlari va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida inson huquqlari sohasida yangi masalalar paydo bo'lmog'da. Ombudsman instituti bu masalalarga ham mos javob berishi lozim.

O'zbekistonda ombudsman instituti o'z faoliyatini yanada takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynashni davom ettirishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda huquqbardoshlik va demokratiya tamoyillarining mustahkamlanishiga xissa qo'shadi.

Inson huquqlari - bu jamiyatning asosi va rivojlanish kafolatidir. Ombudsman instituti esa bu huquqlarni himoya qilishda eng muhim vositalardan biridir. Shuning uchun uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish har bir fuqaro va jamiyatning manfaatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gottehrer M. Fundamental Elements of An Effective Ombudsman Institution. Stockholm Conference. Available at:
https://www.theioi.org/downloads/934ch/Stockholm%20Conference_15.%20Plenary%20Session%20II_Dear%20Gottehrer.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.11.2024-y., 03/24/1002/0936-son
3. Oosting M. The concept and role of the ombudsman throughout the world. Speech at the Regional Ombudsman Conference, "The Ombudsman in Africa in the New Millennium", Kampala, Uganda, August 24, 1998